

Universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish

bo'yicha talaba-yoshlar klubi

NIZOMI

1. Umumiy qoidalar

1. Universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha talaba-yoshlar klubi (keyingi o'rinlarda - Klub) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5719-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 5-martdagi 120-sonli buyrug'iga asosan tashkil etiladi va o'z faoliyatini mazkur Nizomga asosan olib boradi.

2. Klubning asosiy maqsadi universitet professor-o'qituvchilari, xodimlari, talaba-yoshlarida korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni va korrupsiyaga qarshi ijtimoiy-psixologik immunitetni shakllantirish, korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yishdan iborat.

3. Klubning asosiy vazifalari:

-targ'ibot-tashviqot ishlari orqali professor-o'qituvchilar, xodimlar va talaba-yoshlar o'rtasida korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga nisbatan nol darajadagi toqatsizlikni shakllantirish;

- universitet professor-o'qituvchilari va xodimlarini faoliyatini olib borishda shaffoflikni ta'minlash hamda mazkur jarayonlarda jamoatchilik nazoratini o'rnatish;

- universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasi bo'yicha olib borilayotgan ishlarda talaba-yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash;

- jamoat va siyosiy hayotning barcha sohalarida, birinchi navbatda, ta'lim tizimida korrupsiyani oldini olish bo'yicha aniq takliflarni ishlab chiqishda faol qatnashish;

- universitetda talaba-yoshlar ishtirokida korrupsiyaning mazmun-mohiyati, uning kelib chiqish sabablari hamda unga qarshi kurashish bo'yicha davra suhbatlari, fleshmoblar va boshqa tadbirlar tashkil etish.

4. Klub faoliyati ixtiyoriylik, mustaqillik, qonuniylik, obyektivlik, kollegiallik va oshkoralik tamoyillariga asosan tashkil qilinadi.

II. Klub tuzilmasi va tashkiliy masalalar

5. Klub O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan universitet qoshida jamoatchilik asosida tashkil etiladi.

b. Klub faoliyatiga umumiy rahbarlik universitet Korrupsiyaga qarshi kurash "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi (keyingi o'rinlarda – Bo'lim) tomonidan amalga oshiriladi hamda Klub Bo'lim oldida hisobdor sanaladi.

7. Klub alohida emblemasi (logotipiga)ga ega bo'ladi.

8. Bo'lim tomonidan Klub faoliyatida ishtirok etuvchilar ro'yxati fakultet dekanlari tavsiyasiga asosan og'zaki so'rov asosida shakllantiriladi.

9. Bo'lim taqdim etilgan ro'yxatda keltirilgan talabalar bilan umumiy tanishuv suhbatlari o'tkazadi. Suhbat davomida talabalarning bilim darajasi va dunyoqarashi baholanadi.

10. Suhbat natijasi bo'yicha talabalarni Klubga a'zoliciga qabul qilish Bo'lim tomonidan tuzib imzolangan yakuniy ro'yxat asosida amalga oshiriladi.

11. Klub a'zolarining faoliyati bir nechta sektorlarga bo'lingan tartibda amalga oshiriladi.

12. Klub a'zolari faoliyatini to'g'ri tashkil etish va muvofiqlashtirib borish maqsadida Bo'lim tomonidan har bir sektorga universitet vakili - sektor rahbari hamda a'zolar orasidan sektor yetakchisi ro'yxati shakllantiriladi.

13. Klub ish rejasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar, ularni o'tkazishdan maqsad, sanalar, qatnashuvchilar, mas'ul shaxslar va amaliy natijalar aks ettiriladi, mazkur reja har o'quv yilining boshida Bo'lim tomonidan tasdiqlanib, uni amalga oshirilishi tizimli ravishda nazorat qilinadi.

16. Klub ish rejasida a'zolarining umumiy yig'ilishi, korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusiga bag'ishlangan esselar tanlovi va fleshmoblar, uchrashuvlar, ilmiy seminarlar, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha soha mutaxassislari va taniqli shaxslar ishtirokida uchrashuvlarni o'tkazish kabi tadbirlar aks ettiriladi.

17. Klub a'zolari qonun ustuvorligini ta'minlay oladigan, vatanparvar, korrupsiyaga qarshi kurashishda fidoiy, jonkuyar, odob-ahloqi bo'yicha namunali bo'lishi kerak.

18. Klub ish rejasi va hisobotlari Bo'lim boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

19. Klub a'zolariga qonun hujjatlari asosida taqiqlangan harakatlarni amalga oshirish hamda faoliyati davomida xizmatga doir va boshqa ma'lumotlarni oshkor etish qat'iy taqiqlanadi.

20. Klub a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

klub faoliyati haqida ma'lumotga ega bo'lish;

klub doirasida tashkil etiladigan tanlovlar va tadbirlarda qatnashish.

Klub a'zolari faoliyatdan kelib chiqib boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

21. Klub a'zosi quyidagi majburiyatlarga ega:

universitetdagi o'quv jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda Klub doirasidagi tadbirlarda qatnashishga;

Bo'lim boshlig'ining, Klub sektori rahbari va yetakchisining Klub faoliyatga oid qonuniy ko'rsatmalarini bajarishga.

22. Talabalar quyidagi asoslarga ko'ra klub a'zolidan chiqariladi:

o'z xohishiga ko'ra bergan arizasiga asosan;

universitetni tugatganda;

talabalar safidan chetlashtirilganda va akademik ta'til olganda;

xizmatga doir va boshqa ma'lumotlarni oshkor etganda;

sog'lig'i imkon bermaganda;

jinoiy javobgarlikka tortilganda;

qonunchilikda belgilangan boshqa hollarda.

23. Talabani klub a'zolidan chiqarish haqida sektor rahbari Bo'limga bildirgi bilan murojaat qiladi. Bildirgi asosida talaba klub a'zolari ro'yxatidan chiqariladi.

24. Talabani klub a'zolidan chiqarishga asos bo'lgan holatlarning bartaraf etilganligi (sog'lig'i tiklanganda, talabalar safiga tiklanganda, klub a'zolidan qabul qilish haqida murojaat etganda va boshqalar) uni klub a'zolidan qabul qilish uchun asos bo'ladi.

25. Mazkur Nizom talablarini buzganligi uchun klub a'zolidan chiqarilgan talaba kamida olti oy o'tgach, klubga takroran qabul qilinishi mumkin.

III. Yakuniy qoidalar

26. Klub a'zolarining klub doirasidagi faoliyati ularni universitetdagi ta'lim jarayoni doirasidagi majburiyatlardan ozod etmaydi.

27. Universitetda klub a'zolarining ma'lumotnomasi (obyektivka) yuritiladi.

28. Talabalarning klubdagi faoliyati universitet tomonidan rag'batlantirilishi mumkin.

29. Klub faoliyatini tugatish va qayta tashkil etish universitet Kengashi qarori asosida amalga oshiriladi.

Ushbu Nizom 2022 yil "23" 09 universitet Kengashi 2 -sonli yig'ilishi 21.9.2 qarori bilan ma'qullangan.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Komplayens-nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi tomonidan shakllantirilgan.

Коррупцияга қарши курашиш "Комплаенс назорат" тизимини бошқариш бўлими бошлиғи



А.С. Умирзаков